O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2023 - yil 2 - noyabr 298-10-212-Q/23 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent tumanida 2024 yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil 5 dekabrdagi 965-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining 2023 yil 29 sentabrdagi 27/18-01/05-1241-son xati bilan kiritilgan takliflarni inobatga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga muvofiq

QAROR QILAMAN:

1. Toshkent tumanida 2024 yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam soni ilovaga muvofiq tumandagi korxona, tashkilot va muassasalar xodimlari o‘rtacha sonining 5 foizi miqdorida, ya’ni 285 kishi etib belgilansin va zaxiraga qo‘yilsin, shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshgacha va nogironligi bo‘lgan shaxs bolalari bo‘lgan yolg‘iz ota, yolg‘iz onalar va ko‘p bolali oilalar uchun 0,8 foiz – 47 kishi;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 1,2 foiz – 70 kishi;

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 0,1 foiz – 4 kishi;

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 3 foiz – 145 kishi;

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 0,3 foiz – 15 kishi;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 0,1 foiz –4 kishi.

2. Shaxslarning ko‘rsatib o‘tilgan toifalari uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat qilish sharoitlariga muvofiq bo‘lishi shartligi belgilab qo‘yilsin.

3. Tashkilotlar rahbarlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq ushbu qarorning ilovasida ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlasinlar.

4. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha tuman hokimining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanishi to‘g‘risida ogohlantirilsin.

5. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (D.Muhamedov) besh kun muddatda ushbu qarorni ilovada ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari S.Salixov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**

Toshkent tuman hokimining
2023-yil 2-noyabrdagi
298-10-212-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Toshkent tumanida 2024 yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining eng kam soni

T/R	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari belgilangan tashkilotlar ro‘yxati	Tashkilot STIR	Ularda ishlovchilar soni	Band qilingan ish o‘rinlari	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar toifasi							
					14 yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalariga	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, «Mehriboнlik» uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari	Muddatli harbiy xizmatdan qaytganlar	Nogironlar soni	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar	Jazoni o‘tash muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun	Odam savdosi qurboni uchun	Atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar hamda qonun xujjatlarga muvofiq boshqa shaxslar uchun *(20.03.1997 yil VM-153-son qarori)*
1	TOSHKENT TUMANI TIBBIYOT BIRLASHMASI	207265965	1956	79	15	19	1	39	5			
2	"BONITO GROUP" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI	304612034	318	13	1	7		5				
3	TOSHKENT VILOYAT FTIZIATRIYA VA PULMONOLOGIYA MARKAZI	202029343	288	14	3	4		7				
4	"PROGUM TICARET" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI	206983556	205	14	1	6	1	5	1			
5	"NAVRO'Z-PTK" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI	201607534	202	13		8		5				
6	"TOSHKENT VILOYAT BOLALAR FTIZIATRIYA SIHATGOHI" DAVLAT MUASSASASI	201839000	193	4				4				
7	"TOSHKENT TUMANI OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI"	207267013	226	10				5	1	4		
8	TOSHKENT TUMANI 9-SONLI IXTISOSLASHTIRILGAN DAVLAT UMUMTA’LIM MAKTABI	203642824	178	5	1			4				
9	"TOSHMINERALSUV" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI	205161259	172	8			1	7				
10	1-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABI	203459679	154	5	1			4				
11	12-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABI	203640257	137	6	2	2		2				
12	14-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABI	203642816	145	6	2	2		2				
13	"TOSHKENT TUMANI 18-SON IXTISOSLASHTIRILGAN DAVLAT UMUMTA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203618567	116	9	3	1		4	1			

14	26-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTAB	203665724	107	8	2	2		3	1			
15	TOSHKENT TUMANI 15-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	203640240	113	9	2	3		3	1			
16	2-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABI	203601264	109	6	1	2		3				
17	6-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABI	203632804	117	6	1	1	1	3				
18	30-SONLI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI	203699364	108	6	1	3		2				
19	"TOSHKENT TUMANI SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT SALOMATLIGI BO‘LIMI" DAVLAT MUASSASASI	207266290	95	6	1	1		3	1			
20	4-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABI	203493574	85	5	1	1		3				
21	3-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTAB	203620029	90	6	1	1		3	1			
22	16-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABI	203869002	52	5	1	1		2	1			
23	10-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABI	203612418	98	7	2	2		2	1			
24	"TOSHKENT TUMAN 1-SON KASB-HUNAR MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206932420	99	8	1	3		3	1			
25	"WORLD SWEETIES" XUSUSIY KORXONA	306230137	54	6	1			5				
26	"MEVA-SHARBAT ILMIY EKSPERIMENTAL VINOCHILIK" MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI	200577234	55	4	1			3				
27	21-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABI	206908654	61	4	1	1		2				
28	"NON-AZIZ" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI	203033172	50	4	1	0		3				
29	"BARKAMOL AVLOD BOLALAR MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	207125079	46	3				3				
30	"TOSHKENT TUMAN 32-SONLI BOLALAR MUSIQA VA SA’NAT MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206937517	47	2				2				
31	"BOLGARIA-SHAROB" MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	202282989	30	2				2				
32	"TOSHKENT TUMANI 38-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	310385347	20	2				2				
			5726	**285**	**47**	**70**	**4**	**145**	**15**	**4**	**0**	**0**